

“QISSASI RABG‘UZIY” ASARIDAGI “YUSUF QISSASI” VA QUR’ONI KARIM

Karimova Dilobodxon Xalimovna

Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Mo’sidinova Saodat Zohidjon qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti O’zbek tili va adabiyoti
yo’nalishi I-bosqich 101-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola Yusuf va Zulayho qissasining Qur’oni Karimdagiga Yusuf surasi bilan “Qissasi Rabg‘uziy” asaridagi taqdimotini o‘rganadi. Maqolada ikki manbaning o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilingan bo‘lib, badiiy va tarixiy tafsilotlarga alohida e’tibor qaratilgan. Qur’ondagi qisqa va amiq tavsillardan farqli o’laroq Rabg‘uziy asarida voqealik dramatik tarzda kengaytirilgan. Maqola shuningdek, ikki asar o’rtasidagi psixologik va badiiy tafovutlarni ko’rsatib, Zulayhoning Yusufga bo‘lgan muhabbatini va tavbasi xususida chuqur tahlil taqdim etadi. Ushbu tadqiqotda Xorazmiy adabiyoti va islomiy tasavvufga oid yangi nuqtai nazarlar keltirilgan.

Kalitso‘zlar: Yusuf va Zulayho, Qissasi Rabg‘uziy, Qur’on va adabiyot, adabiy taqqoslash, Yusuf surasi, Zulayho va tavba, badiiy tasvir, adabiy tafsir.

KIRISH

Yusuf va Zulayho qissasi musulmon Sharq adabiyotining eng mashhur qissalaridan biridir. Bu hikoya Qur’oni Karimda Yusuf surasi sifatida ilohiy ma’noda bayon etilgan bo‘lsa, “Qissasi Rabg‘uziy”da badiiy adabiyot shaklida ifoda topgan. Rabg‘uziy qissasi XIII asrda yozilgan bo‘lib, unda diniy voqealar xalq og‘zaki ijodi unsurlari bilan boyitilgan, ayrim obrazlar chuqurroq yoritilgan va sevgi-muhabbat mavzusi asosiy o‘ringa chiqadi.

Qur’oni Karimdagiga Yusuf surasining umumiy mazmuni.

Yusuf surasi Qur’oni Karimning eng go‘zal suralaridan biri sanaladi. Unda Yusuf payg‘ambarning hayoti, bolalikdagi tushlari, akalarining hasadi, quduqqa tashlanishi, Misrga olib ketilishi, azizning uyidagi sinovlar, Zulayho fitnasi, qamoq va oxir-oqibat sultonga aylanishi hikoya qilinadi. Bu sura sabr, poklik, Allohga bo‘lgan iymon va kechirimlilik mavzularini yoritadi. Surada Zulayho ismi ochiq tilga olinmaydi.

“Qissasi Rabg‘uziy” asaridagi Yusuf va Zulayho voqeasi.

Rabg‘uziyning qissasi diniy hikoyalar to‘plami bo‘lib, unda 72 ta payg‘ambarning hayoti hikoya qilinadi. Yusuf haqidagi qissa ushbu to‘plamdagiga eng yirik va badiiy jihatdan mukammal hikoyalardan biridir. Unda voqealar Qur’ondagi asosga tayangan holda tasvirlanadi, ammo ko‘plab badiiy tafsilotlar va xalqona obrazlar bilan kengaytirilgan. Ayniqsa, Zulayho obrazi chuqur, murakkab va dramatik tarzda ochilgan. Uning Yusufga bo‘lgan sevgisi, azoblari, tavbasi va oxirida baxtga erishishi markaziy mavzuga aylangan.

O‘xshashliklar tahlili :Asosiy syujet birligi:

Ikkala manbada ham Yusufning go‘zalligi, akalari tomonidan hasad bilan quduqqa tashlanishi, Misr azizi tomonidan sotib olinishi, Zulayho fitnasi, Yusufning qamoqqa tushishi va oxir-oqibat yuksalishi tasvirlanadi.

Sabr va poklik mavzusi:

Yusufning Zulayhoning vasvasasiga qarshi turishi har ikki manbada ham ma'naviy kuchning timsoli sifatida ifoda etiladi.

Ilhomlantiruvchi obrazlar:

Yusufning to'g'riliqi, adolatparvarligi, tush ta'biri orqali xalqni najotga yetkazishi har ikkala manbada ham ijobjiy, yorqin obraz sifatida aks ettirilgan. Zulayho obrazi. Qur'onda: "Azizning xotini" deb nomlanadi, ismi zikr qilinmaydi, qisqa va aniq holatda voqeas tasvirlanadi. Asosiy e'tibor Yusufning pokligiga qaratilgan. Rabg'uziyada: Zulayho obraziga keng o'rinn beriladi - u avval fitnachi, keyinchalik tavbakor, iztirobli oshiq va oxir-oqibat. Bu obraz orqali ayollik tuyg'ulari, muhabbatning dramatik tabiatini ifoda etishga harakat qilingan. Tush va ta'birlar Qur'onda Yusuf tushlar orqali Allohnинг payg'ambarlik sifatiga ega bo'lgan ilhomiga ega bo'ladi. Rabg'uziy esa bu tushlarn ixlqona ifoda vositalari, masalan, she'rlar, hikmatli so'zlar orqali boyitgan. Badiiy tasvir vositalari Rabg'uziy asarida tasviriy san'at (tashbeh, istiora, mubolag'a) keng qo'llanilgan.

Masalan, Yusufning go'zalligi "oydin yuz", "xushbodog'iz", "behishtuzuki" kabi poetik obrazlar orqali ifodalangan. Qur'onda esa ilohiy soddalik va mukammal mazmun ustuvor: "Biz Yusufga hikmat va bilim berdik, albatta bu ezgu amalkorlar jazosi bo'ldi." Voqealar tafsiloti Qur'on voqeani ixcham, ruhiy tarbiya maqsadida bayon qiladi. Rabg'uziy esa ularni dramatik syujet bilan boyitadi: Zulayho saroyidagi kutilmagan voqealar, Yusufni vasvasa qilayotgan ayollar, Zulayhoni qiyayotgan ichki kurash kabi sahnalar kiritilgan.

Qissa voqealar kontekstida diniy va dunyoviy g'oyalari uyg'unligi. Qur'oni Karimda Yusuf voqeasi "ahsanu-l-qasas" - ya'ni "qissalarning eng go'zali" deb baholangan. Bu, Qur'ondagi ushbu hikoyaning o'ta chuqur ma'naviy va axloqiy ma'no kasb etishini bildiradi. Yusuf surasida barcha voqealar Allohnинг hikmati, inson sabri, kechirimlilik va iymon asosida qurilgan. Asarda shaxsiy tuyg'ulari kkinchi darajada turadi. Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarida esa qissa voqealarini diniy negizda bo'lsa-da, muallif xalqona did va obrazlar bilan boyitgan. Bu esa asarning ma'naviy-dunyoviy mazmunini kengaytirgan. Ayniqsa, Zulayhoning insoniy tuyg'ulari - muhabbat, armon, iztirob va sadoqat - badiiy tasvirda ochiladi. Yusuf va Zulayho o'rtasidagi ziddiyatlari munosabatlar.

Qur'oni Karimda Yusuf va Zulayho o'rtasidagi holat ijtimoiy-ma'naviy nuqtai nazardan tasvirlanadi: Zulayho Yusufni yo'ldan ozdirmoqchi bo'ladi, ammo Yusuf bu fitnadan Allohnинг yordami bilan najot topadi. Yusuf surasining 24-oyatida aytildi: "Ayol unga xohish bildirdi, u ham ayolga (havas qilgan) bo'lardi, agar Parvardigori dalilini ko'rmaganida edi..." "Rabg'uziy bu holatni kengroq dramatik tarzda bayon etadi: Zulayho bir necha marta Yusufni vasvasa qiladi, undan norozi bo'lib, tuhmat qiladi, ammo keyinchalik bu ishidan pushaymon bo'ladi.

Rabg'uziy Zulayhoni sevgi va tavbaning timsoliga aylantiradi. Bu esa o'rta asr musulmon adabiyotidagi ayol obrazining murakkabligidan dalolat beradi. Yusufning qamoqdagi holati va tush tabiri. Qur'oni Karimda Yusufning qamoqdagi holati ixcham ifodalangan, asosiy e'tibor Yusufning tush tabiri orqali haqiqiy ilohiy bilim sohibi ekanligini ko'rsatishga qaratilgan.

Yusuf qamoqda ikki mahbusning tushini tabir qiladi va bu orqali oxir-oqibat Misr podshohiga taniladi. "Qissasi Rabg'uziy"da bu sahna tafsilotli: qamoqdagi tushlar, Yusufning sabr bilan yashashi, u yerdagi odamlarga qilgan nasihatlari, ibodatlar tasvirlanadi. Badiiy

yondashuv kuchli, Yusuf xuddi xalq donishmandi sifatida tasvirlanadi. Yusufning olıyjanobligi va kechirimli qalbi

Qur'onda Yusuf akalarini kechiradi va: "Bugun sizlarga ayb yo'q. Alloh sizlarni mag'firat qilur...". Bu ilohiy kechirimlilik namunasi. Rabg'uziyning asarida esa bu holat hissiy, dramatik yo'sinda ochiladi. Yusufning akalari undan kechirim so'raydi, Yusuf ularni bag'riga bosadi. Bu joyda xalqona hikmatlar, axloqiy saboqlari fodalangan: "Bir dushmanni afv etmak - ikki do'st topmakdur." Zulayho tavbasi va ularning uchrashuvi .Qur'oni Karimda Zulayhoning kechirim so'rashi va Yusuf bilan oxirgi holati batafsil yoritilmaydi. Bosh urg'u Yusufning pokligiga beriladi.

Ammo Rabg'uziyda Zulayho qariyb bosh qahramonga aylangan. U sevgan kishisiga yetolmagan ayol, iztirob ichida qarigan, ammo oxirida Yusuf uni kechiradi va ular turmush quradi. Bu dramatic yakun asarga xalqona epik ruh bag'ishlaydi. Zulayhoning tavbasi, iltijolari va oxirgi baxtga erishuvi o'quvchida kuchli ta'sir qoldiradi. Bu holat asarda muhabbatning pok, ilohiy darajadagi tasvirini beradi. Zulayhoning Yusufga munosabati Qur'on tafsirida Zulayho vasvasaga soladi, lekin his-tuyg'ulari chuqur tasvirlanmaydi:

"U eshiklarni yopdi va: 'Marhamat qil!' dedi."

Rabg'uziyning asarida Zulayhoning ichki kechinnmalari, iztiroblari dramatik ifodalanadi:

"Zulayho zindonchiga aytar edi: 'Yusufni urgil, men faryodini eshitay.'"

Taqqos: Qur'onda voqeа qisqacha, asosiy ahloqiy g'oya bilan berilgan. Rabg'uziyda esa Zulayhoning dardmand muhabbatni dramatik, ayollarga xos ifoda bilan ochilgan.

Zulayhoning tavbasi va so'nggi holati.

Qur'onda Zulayho Yusufning pokligini tan oladi, ammo ular orasidagi munosabat haqida ortiqcha tafsilot berilmaydi:

" (Zulayho dedi:) 'Endi rostini aytdim, men uni vasvasa qildim, albatta, u rostgo'y kishilardan edi.'

Rabg'uziy asarida esa Zulayho nafaqat tavba qiladi, balki Yusufga turmushga chiqadi, bu dramatic tugallanish beradi:

"Zulayho aytdi: 'Ey payg'ambarlar toji, sendan o'zga hech kimga nigoh solmadim. Sendan boshqa hech kimga iltijo qilmadim.'"

Taqqos: Qur'on Yusufning pokligini ifoda etadi, ammo ular nikohlandimi-yo'qmi - ochiqlanmaydi. Rabg'uziyada esa bu hikoya "baxtli yakun" bilan tugaydi.

Zulayhoning tush ko'rishi va ramziy ifoda.

Qur'onda Yusufning tushlari bayon qilinadi, Zulayhoning tush ko'rishi eslatilmaydi.

Rabg'uziyda esa Zulayho tush ko'radi- bu uning holatini ramziy ifodalovchi badiiy usul:

"Zulayho ham ul kecha tush ko'rdi. Yusuf taxt uzra o'tirar, Zulayho Yusufning oyog'I tagida yastanib yotardi..." Taqqos: Qur'onda faqat Yusufning tushlari asosiy rol o'ynaydi. Rabg'uziyda esa Zulayhoning tush ko'rishi orqali uning ruhiy o'zgarishi ifodalangan.

Yusuf va Zulayho voqeasi islomiy manbalarda va adabiy asarlarda turlicha yondashuvda talqin etilgan . Qur'oni Karimdagи yusuf surasida ushbu qissa qisqalik ,ma'naviy chuqurlik va axloqiy ibrat bilan berilgan . Unda Yusufning pokligi , Zulayhoning gunohi va tavbasi Allohnинг rahmati doirasida tushuntiriladi. Bunga qarshi tarzda "Qissasi Rabg'uziy" asarida bu voqeа badiiy kengaytirilgan , dramatik sahnalar, tushlar, tuyg'ular va hatto ular orasidagi muhabbat ham keng yoritilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Qur'oni Karim .Tarjimasi :Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf .-Toshkent : Hilol-Nashr , 2013. 604 bet
- 2.Nosuriddin Rabg'uziy . Qissasi Rabg'uziy .Matnni nashrga tayyorlovchi :H.Sulaymon .- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1990.-280-bet
- 3.Turg'unoy Xidirova Abdumajid qizi . "Yusuf va Zulayho " turkumidagi dostonlar .Ilm va taraqqiyot yo'lida ilmiy jurnalı.-2024.-41-43-bet.
- 4."Qissasi Rabg'uziy " asarida Yusuf Siddiq alayhissalom .Gujum.uz elektron maqola .
<https://gujub.uz>.